


# TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2021- yil 1- mart holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.*



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-mart holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha  
2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

4

72 026



Mas'uliyati cheklangan  
jamiyatlar

3 390



Oilaviy korxonalar

536



Unitar korxonalar

12 871



Xususiy korxonalar

226



Aksiyadorlik jamiyatlari

423



Boshqa korxonalar


## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-fevral oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-fevral oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




# Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **6,6** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




# Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **17,4** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari




**17,0** foizga oshdi



## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**19,8** foizga oshdi



## Oilaviy korxonalar




**1,2** martaga oshdi




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **16,8** foizga oshdi



## Xususiy korxonalar




O'tgan yilga nisbatan **0,8** foizga pasaydi




# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari




## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



## Xususiy korxonalar









## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)





Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- mart holatiga ko'ra 3,6 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 mingtaga yoki 17,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3,3 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 mingtaga yoki 17,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 94 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28 taga yoki 22,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- mart holatiga ko'ra 7,3 ming tani tashkil etib, ulardan 7,1 mingtasi yoki 96,3 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 0,7 mingtaga yoki 112,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-fevral oylarida 231 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-fevral oylarida, birlikda)



# Toshkent shahrida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

12

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
Rossiya Federatsiyasi	1 291	690	601
Qozog'iston Respublikasi	681	301	380
Ozarbayjon Respublikasi	159	52	107
Ukraina Respublikasi	110	56	54
Qirg'iz Respublikasi	87	35	52
Tojikiston Respublikasi	85	37	48
Turkmaniston Respublikasi	62	23	39
Belarus Respublikasi	56	25	31
Armaniston Respublikasi	23	15	8
Moldova Respublikasi	17	5	12

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2021-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

13



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



# Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

14


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
<b>Toshkent shahri</b>	<b>7 124</b>	<b>2 927</b>	<b>4 197</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Uchtepa</b>	229	83	146
<b>Bektemir</b>	162	91	71
<b>Yunusobod</b>	913	382	531
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	902	385	517
<b>Mirobod</b>	1 217	391	826
<b>Shayxontohur</b>	493	236	257
<b>Olmazor</b>	378	206	172
<b>Sirg'ali</b>	247	120	127
<b>Yakkasaroy</b>	1 126	426	700
<b>Yashnobod</b>	565	256	309
<b>Yangihayot</b>	87	47	40
<b>Chilonzor</b>	805	304	501

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Mirobod – 1 217 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 17,1 %), Yakkasaroy – 1 126 ta (15,8 %) hamda Yunusobod tumanlarida 913 tani (12,8 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining eng kam qismi Uchtepa – 229 ta (3,2 %), Bektemir 162 ta (2,3 %) hamda Yangihayot 87 tani (1,2 %) tashkil etgan.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

15




2021- yil 1- mart holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Yunusobod – (13,1 %), Chilonzor – (12,8 %), Mirzo Ulug'bek – (11,1 %), Olmazor – (10,2 %), Shayxontohur – (9,8 %), Uchtepa – (9,1 %), Yakkasaroy – (8,6 %), Mirobod – (8,4 %), Yashnobod – (7,8 %), Sirg'ali – (4,9 %), Bektemir – (2,3 %) hamda Yangihayot tumanlarida (1,9 %) tashkil etgan.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar-fevral oylarida, birlikda)

2021- yil yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – (13,6 %), Yunusobod – (12,3 %), Mirzo Ulug'bek – (11,7 %), Shayxontohur – (9,7 %), Uchtepa – (9,0 %), Olmazor – (8,9 %), Yashnobod – (8,6 %), Mirobod – (7,8 %), Yakkasaroy – (7,6 %), Sirg'ali – (6,5 %), Bektemir – (2,3 %) hamda Yangihayot tumanlarida (2,0 %) tashkil etgan.



# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining tumanlar bo'yicha soni


(2021- yilning yanvar-fevral oylarida, birlikda)




2021- yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar tumanlar kesimida taqsimlanganda Yashnobod – (15,9 %), Uchtepa – (12,8 %), Sirg'ali – (12,8 %), Mirzo Ulug'bek – (11,7 %), Chilonzor – (9,6 %), Shayxontohur – (8,5 %), Yunusobod – (7,5 %), Yakkasaroy – (6,3 %), Olmazor – (6,3 %), Mirobod – (4,3 %), Yangihayot – (3,2 %) hamda Bektemir tumanlarida (1,1 %) tashkil etgan.

## Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar-fevral oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da





## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Toshkent shahar statistika boshqarmasi**

**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

**tel.: 71 203-88-31**